



Received: April 19, 2024
Accepted: June 23, 2024
Available online: June 25, 2024

Islom Minniqulov

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

Islom Minnikulov

Associate Professor, Doctor of Philosophy in
Philological Sciences (PhD)
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: mr.islom19@gmail.com
ORCID iD: 0009-0005-8540-4980

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SHART KONSTRUKSIYALARINING IMPLIKATURA HOSIL QILISHI (muloqot uslubi tamoyilining buzilishi misolida)

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillarida shart konstruksiyalarining pragmatik aspektini yoritib berishga bag'ishlangan. Xususan, unda mazkur til birliklarining "muloqot uslubi" tamoyili buzilishi natijasida implikatura hosil qilish imkoniyati tahlil qilinadi. Zero, konversatsion implikatura pragmatik hodisa sifatida o'z dolzarbligini yo'qotmaganligi bois, u pragmalingsvistik tadqiqotlar predmeti sifatida o'rganilmoqda. Mazkur tadqiqotda lingvistik tavsiflash, pragmatik tahlil, konversatsion implikatura, diskurs tahlil, qiyosiy-tipologik tahlil kabi metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning maqsadi – ingliz va o'zbek tillarida shart gaplarning "muloqot uslubi" tamoyilining buzilishi natijasida implikatura hosil qilish imkoniyatini tahlil qilish. Ishning maqsadini amalga oshirishda quyidagi vazifalar belgilanadi: mavzuga doir adabiyotlarni tahlil qilish, ingliz va o'zbek tillarida shart gaplarning implikatura hosil qilish potensialini ochib berish, hosil qilingan implikaturaning muayyan nutq akti vazifasini bajarishini asoslab berish, ingliz va o'zbek tillarida shart gaplarning implikatura hosil qilishidagi izomorfik va allomorfik xususiyatlarini yoritib berish.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ingliz va o'zbek tillarida shart gaplar "muloqot uslubi" tamoyilining buzilishi natijasida konversatsion implikatura hosil qilishi, ayni paytda, quyidagi maqsadlarda mazkur tamoyilni buzishi aniqlandi: tinglovchi bilan ahil munosabat o'rnatish, tanqid qilish, emotsional ta'sir ko'rsatish, muhokamani

GENERATION OF IMPLICATURE VIA CONDITIONAL CONSTRUCTIONS IN ENGLISH AND UZBEK (on the example of violation of maxim of manner)

ABSTRACT

This study focuses on the pragmatic aspect of conditional constructions in English and Uzbek. It analyzes the potential of conditional sentences in these languages to create a conversational implicature as a result of violating the maxim of manner. The study employs methods, such as linguistic description, pragmatic analysis, conversational implicature, discourse analysis, and comparative-typological methods.

The research aims to demonstrate the possibility of conditional sentences in English and Uzbek to produce a conversational implicature through the violation of the maxim of manner. To accomplish this goal, the research sets out the following tasks: reviewing relevant literature, analyzing the potential of conditional sentences to create a conversational implicature, justifying the implicature to achieve specific speech acts, and identifying shared and differing features in the pragmatic aspect of conditional sentences.

The research findings indicate that conditional sentences in English and Uzbek can indeed generate a conversational implicature by violating the maxim of manner. These implicatures serve various speech acts such as building rapport, criticism, emotional impact, ending discussions, expressing interest, avoiding complaints and conflicts, saving face, and pleasing others. In English, the produced implicatures are associated with directive speech acts such as requests, refusals, offers, and agreements, as well as expressive speech acts like rebuke and

to'xtatish, muhokamadan o'zini olib qochish, o'z manfaati, qiziqishini muhokama qilish, shikoyatdan o'zini olib qochish, konfliktini kamaytirish, o'z (va o'zganing) qadri, obro', maqomi, o'rnini saqlash, tinglovchini mamnun etish. Hosil qilingan implikatura quyidagi nutq aktlarini reallashtirishi ma'lum bo'ldi: ingliz tilida – iltimos, rad etish, taklif, rozilik berish kabi direktiv nutq aktlari va xasrat-nola, tanbeh-koyish kabi ekspressiv nutq aktlari; o'zbek tilida – ruxsat berish, maslahat, nasihat, rozi bo'lmaslik, iltimos kabi direktiv nutq aktlari, ishonch bildirish va kuchli ishonch bildirish kabi komissiv nutq aktlari.

Xulosa shuki, qiyoslanayotgan tillarda shart gaplardan foydalanayotgan nutq ishtirokchilari o'z pragmatik intensiyasini ifoda etishda muloqot uslubi tamoyilini ma'lum kommunikativ maqsadlarda buzadi va natijada kommunikativ kontekstda konversatsion implikatura hosil qiladi. Hosil bo'lgan implikatura kommunikativ muhitda ba'zi illokutiv nutq aktlarini reallashtiradi.

Kalit so'zlar: shart gap, shart forma, shart konstruksiya, shart ma'no, konversatsion implikatura, pragmatik intensiya, muloqot uslubi tamoyili.

KIRISH

Jahon tilshunosligida lingvistik tadqiqotlar yangi ilmiy paradigma – antroposentrizm tamoyillari doirasida amalga oshirilgan ekan, til va nutq birliklarini o'z faoliyatida, muloqot jarayonida tadqiq etish zarurati yuzaga keldi. Jumladan, pragmalingvistik tadqiqotlarda til birliklarining imkoniyatlarini yanada yoritishda ularni kommunikatsiya jarayonida tadqiq qilish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi kunda jahon tilshunosligida lingvopragmatik tadqiqotlar nutq akti nazariyasi, implikatura, presuppozitsiya, deysis, relevantlik nazariyasi, kooperativ muloqot tamoyillari va boshqa pragmatik nazariyalar doirasida olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotda ham ingliz va o'zbek tillarida shart munosabatlarini ifodalovchi til birliklarining pragmatik tabiati, xususan, implikatura hosil qilish imkoniyati konversatsion implikatura, pragmatik intensiya, muloqotning hamkorlik tamoyillari kabi pragmatik hodisalarga asoslangan holda yoritib beriladi.

Muloqot uslubi tamoyili, ya'ni "aniq va tushunarli so'zlashga harakat qil" maksimasi to'rtta kategoriyadan iborat: a) notanish, tushunilishi qiyin bo'lgan iboralarni qo'llashdan qoch; b) dudmallikdan uzoq tur; d) bayoning qisqa bo'lsin va e) nutqning mantiqiy, uzviylik, tartibda bo'lishi lozim. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida shart gaplarning implikatura hosil qilish potentsiali aynan mana shu

grief. In Uzbek, the implicatures are linked to directive speech acts such as permission, advice, disagreement, and requests, as well as commissive speech acts such as trust and strong belief.

The study concludes that speakers using conditional sentences in these languages violate the maxim of manner to express their pragmatic intentions for communicative purposes, resulting in the creation of a conversational implicature in the communicative context. These implicatures realize certain illocutionary speech acts in the communicative environment.

Key words: conditional sentences, conditional forms, conditional constructions, conditional meaning, conversational implicature, pragmatic intention, the principle of manner.

tamoyillarning buzilishi misolida tahlilga tortiladi.

Jahon tilshunosligida shart munosabatlari muammosi ma'lum darajada tadqiq qilingan. Xususan, muammoning semantik, sintaktik, funksional, stilistik, lingvodidaktik, pragmatik, kognitiv aspektlari ko'plab lingvistik tadqiqotlar predmeti bo'lgan. Shunga qaramasdan, turli tillar tizimida muammoning pragmatik aspekti, xususan, shart gaplarning implikatura hosil qilish potentsiali, uning qiyosiy-tipologik tadqiqi alohida monografik usulda tahlilga tortilmagan. Ushbu muammo aynan mazkur ishda ko'tariladi va ma'lum darajada o'z ilmiy asosini topadi.

Shart munosabatlarining mazmun-mohiyati shu darajada keng va murakkabki, natijada u ko'plab tadqiqotlar predmeti bo'lib o'rganilmoqda. Xususan, shart ma'no yoki shart munosabat ko'plab tilshunoslar tomonidan ta'rif va tavsif etilgan: shart munosabatlar ikki yoqlama propozitsion mazmun kasb etganligi bois shartsiz holat yoki vaziyatga qarama-qarshi holatda shart mazmun yoki ma'noga ishora qiladi [Spohn, 2013; 1074]. K.Shulzning e'tirof etishicha, shart munosabatlar semantik jihatdan chigal va murakkab bo'lib, u bunday til birliklarining sof lisoniy shakllarining mavhumlashishi (abstraktlashish) mahsuli sababli ro'y beradi [Schulz, 2014; 118]. Shuningdek, shartlilik va modallik ma'lum bir til birligining semantik yaxlitligini shakllantirishda o'zaro bog'liqligi sezilarli darajada ta'kidlanadi [Portner, 2007; 211]. Mayk Oukford va Nik Cheyterlar ham shart munosabatlar va sabab o'rtasida munosabatni yoritib beradi [Oukford & Chater, 2010; 105]. Shart munosabatlari grammatikaning asosiy masalalari bo'lib, sabab-natija yoki shart-natija kabi ikki hodisa bilan ifodalangan shart-natija kabi munosabatlarni ifodalash uchun ishlatiladi, ular bosh va ergash gapdan iborat ikki bo'lakli konstruksiyada beriladi [Ko, 2013; 142]. Subyunktiv shart gaplarda zamonga oid va aspektual ma'lumotlar mavjud bo'lib, ular o'z o'rnida modal ma'no va talqin yasashida muhim ahamiyatga ega [Ippolito, 2002; 19].

TADQIQOT METODLARI

Ushbu maqola nazariy xarakterda bo'lib, tadqiqotda tahlil usullari muammoning sifat xususiyatlarini yoritish maqsadida qo'llaniladi. Xususan, tadqiqotda quyidagi tahlil usullaridan foydalanilgan: lingvistik tavsiflash (muammoning nazariy jihatlarini tavsiflash, nazariy qarashlarni umumlashtirish uchun), pragmatik tahlil (ingliz va o'zbek tillarida shart gaplarning implikatura hosil qilish potentsialini tahlil qilish uchun), kontekstual tahlil (ingliz va o'zbek tillarida shart gaplarning implikatura hosil qilish potentsialini yoritishda lingvistik va ekstralingvistik kontekst, adresant va adresat omili, kommunikativ maqsad kabi omillarning rolini tahlil qilish), qiyosiy-tipologik tahlil (ingliz va o'zbek tillarida shart gaplarning implikatura hosil qilish potentsiali, hosil bo'lgan implikatura va uning pragmatik funksiyalarida allomorfik va izomorfik xususiyatlarni tahlil qilish uchun).

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini nutq aktlari nazariyasi, muloqotning hamkorlik tamoyillari, implikatura nazariyasi, pragmatik hodisalar tashkil etadi. Tadqiqot materiali sifatida ingliz va o'zbek tillari badiiy matnlaridagi shart gaplar tanlangan. Ingliz va o'zbek badiiy asarlari tadqiqot materiali uchun yozma manba

bo'lib xizmat qildi.

Muloqot jarayonida til birliklarining ishlatilishi ma'lum tamoyillar va qoidalarga asoslanishi va muayyan sharoitlarda so'zlovchi ataylab ushbu tamoyillarga amal qilmasligi va bunday maqsadli "qoida buzilishi" natijasida ko'chirma, yashirin ma'no hosil bo'lishi [Safarov, 2008; 133] implikatura hodisasi bilan bog'liqligi qayd etiladi. Shuningdek, nigeriyalik olim A.Igvedibiyanning qayd etishicha, kommunikatsiya (muloqot) va kooperatsiya (hamkorlik)ning umumiy tamoyillari va konversatsion vaziyatning ekstralingvistik xususiyatlari ushbu yashirin mazmunning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi [Igwedibia, 2017; 121]. Demak, bunday mazmun faqatgina muayyan muloqot muhitida so'zlovchining kommunikativ-pragmatik maqsadidan kelib chiqadigan tag ma'nodir.

Buyuk xorij pragmalingsvist-olim M.Hauning fikricha, implikatura tushunchasi to'rtta aspekt bilan xarakterlanadi: u so'zma-so'z talaffuz qilinmaydi, u ma'lum kontekstdan kelib chiqadi, bekor qilsa bo'ladigan va so'zma-so'z aytilgan ma'noga qo'shimcha ma'nodan iborat [Haugh, 2002; 127].

Shunday ekan, yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda implikatura tushunchasiga quyidagicha ishchi ta'rif berish mumkin: implikatura nutqda aynan talaffuz qilinmaydigan, o'zgaruvchan, ya'ni muqim bo'lmagan, kontekstda reallashadigan, lug'aviy ma'nodan tashqari qo'shimcha ma'noga ega bo'lgan ifodaning yashirin ko'rinishidir.

Xitoy tilshunosi L.Xiaoqin Xitoy havo yo'llari muhitida kichik tadqiqot o'tkazar ekan, P.Graysning kooperativ tamoyillari buzilishining strategiyalarini aniqlaydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, muloqot uslubi tamoyilini buzish strategiyalariga quyidagilar kiradi: yo'lovchilarga mujmal javob berish, *balki*, *ehtimol*, *taxminan*, *mumkin* kabi mujmal terminlardan foydalanish, yo'lovchining tushunchasi, yo'lovchilarning fikrini bilish maqsadida keraksiz axborotni iloji boricha ko'proq tushuntirish, yo'lovchilar tushunmaguncha biror narsani takrorlash [Xiaoqin, 2017; 168]. Demak, ma'lum bo'ladiki, ayrim muloqot strategiyalari muloqot uslubi tamoyilining buzilishiga olib keladi.

Shart munosabatlari muammosi, xususan, shart gaplarning struktural-semantik, funksional-kommunikativ xususiyatlari shu kungacha ko'plab lisoniy tadqiqotlar predmeti bo'lgan. Xususan, shart gaplar semantik, sintaktik, stilistik, funksional, nutq akti, pragmatik, kognitiv, qiyosiy-tipologik, lingvodidaktik va boshqa nuqtayi nazardan o'rganilgan [Minniqulov, 2021; 55].

Xususan, muammoning pragmatik aspekti bilan quyidagi olimlar shug'ullangan: D.Barbara, M.Eva [Barbara & Ewa, 1984], A.Atanasiadu, R.Dirven [Athanasiadou & Dirven, 1996], M.D. Valina, G.Seoane, M.J. Ferrases, M.Martin [Valiña et al., 1997], Sh.-J. Chao, P.V. Cheng [Chao & Cheng, 2000], Y.Harada, K.Honda [Harada & Honda, 2000], D.J. Hilton, J.-F. Bonnefon, M.Kemmelmayer [Hilton et al., 2001], P.N. Jonson-Lerd, R.M. Birn [Johnson-Laird & Byrne, 2002], R.Karston [Carston, 2004], J.-F. Bonnefon, G.Politzer [Bonnefon & Politzer, 2011], M.Sara [Sarah, 2012], H.Jimayma [Jimaima, 2014], F.Rekanati [Recanati, 2015], H.M. Syuy, Y.-F. Vang, K.-M. Hu [Hsu et al., 2015], C.-H. Elder, K.M. Yasholt [Elder & Jaszczolt, 2016],

H.Hasselgord [Hasselgård, 2016] kabi xorij tilshunoslari. Biroq ushbu ishlar shart gaplarning ma'lum kommunikativ kontekstda pragmatik tabiatini tahlil qilsa-da, shart gaplarning ma'lum kommunikativ kontekstda implikatura hosil qilish potentsialini yoritish masalasi bilan shug'ullanmaydi [Minniqulov, 2021; 57]. Shu bilan birga, ingliz va o'zbek tillarida muloqotning miqdor tamoyilining maqsadli buzilishi natijasida ma'lum implikatura hosil qilish imkoniyatini tahlil qilishda shunday xulosaga kelish mumkin: ingliz tilida bir vaqtning o'zida shart gaplardan foydalanish orqali muloqotning ikki tamoyili buzilishi va ma'lum implikatura hosil qilinishi kuzatilgan.

Ta'kidlash joizki, muloqot ishtirokchilari o'z nutqida shart gaplardan foydalanar ekan, muloqot tamoyillarini turli maqsadlarda buzadi va muayyan implikatura hosil qiladi [Minniqulov, 2019a; 30]. Shuningdek, shart munosabatlarining fe'l mayllari, zamon kategoriyasi, aniqlovchi vositalar va miqdor ko'rsatkichlari, inkor munosabatlar va ravish vositalar bilan semantik integratsiyalashuvi masalalari va mazkur lingvistik qurilmalarning kommunikativ vaziyatlar va pragmatik omillar bilan integrallashuvi zamonaviy tilshunoslik sohasidagi shart munosabatlarini tadqiq etish predmeti sifatida talqin etilishi mumkin [Minniqulov, 2018; 84]. Shart gaplarning pragmatik tahlilida quyidagilarni e'tiborga olinishi ta'kidlanadi: kommunikativ aktning muvaffaqiyatli bo'lishiga hissa qo'shishi, so'zlovchining kommunikativ maqsadini kontekst yordamida aniqlash, shart ma'no ifodalovchi markerlarning pragmatik funksiyasini aniqlash, shart gaplarning pragmatik tabiatini diskurs tahlil metodi orqali ifodalash [Minniqulov, 2019b; 87].

NATIJALAR VA MUNOZARA

Ingliz va o'zbek tillarida shart munosabatli formalardan voqeiy muloqot kontekstida nutq ishtirokchilari o'zaro hamkorlik tamoyillarining muloqot uslubi qoidasi (aniq va tushunarli so'zlashga harakat qil)ni o'z pragmatik maqsadidan kelib chiqqan holda buzish orqali konversatsion implikaturani keltirib chiqarishda foydalanishi mumkin.

Quyida ingliz va o'zbek tillarida mazkur tamoyilning "notanish, mavhum, noma'lum, tushunilishi qiyin bo'lgan iboralarni qo'llashdan qoch" qoidasining buzilishi natijasida implikatura hosil bo'lishiga oid misollarni tahlilga tortamiz.

Kontekst: Devid Kopperfild va Stirforz o'rtasidagi suhbat. Stirforz Devidga Deyzi deb nom qo'ygan. Bu nomni Devidni yaxshi ko'rganidan qo'ygan. U Devid London maktabiga kelganda unga mehribonlik, g'amxo'rlik qilgan bola edi. Devid Yarmutga ketadigan bo'ldi va Devid Stirforzning xonasiga uyquga ketishdan avval xayrlashish uchun boradi va Stirforz Devidga "Agar bizni nimadir yoki qandaydir holat ajratsa, meni doim eng yaxshi inson deb esla", deb iltimos qiladi.

Stirforz: *Daisy, for though that's not the name your Godfathers and Godmothers gave you, it is the name I like best to call by – and I wish, you could give it to me.*

David: *Why, so I can, if I choose.*

Stirforz: *Daisy, if anything should ever separate us, you must think of me at my best, old boy. Come! Let's make that bargain. Think of me at my best, if circumstances should ever part us!* [Dickens, 1949; 424].

Implikatura: *Iltimos, meni eslab tur!*

Maqsad: *Tinglovchi bilan ahil munosabat o'rnatish.*

Pragmatik funksiya: *iltimos (nutq akti).*

Misolda Stirforzning nutqi (*Daisy, if anything should ever separate us, you must think of me at my best, old boy. Come! Let's make that bargain. Think of me at my best, if circumstances should ever part us!*) muloqot uslubi tamoyilining "notanish, mavhum, noma'lum, tushunilishi qiyin bo'lgan iboralarni qo'llashdan qoch" qoidasini buzmoqda, chunki Stirforzning ularni ajratadigan qanday holatlar yoki vaziyatlar haqida gapirayotganligi Devid uchun noma'lum edi. Shuningdek, Stirforzning "meni faqat yaxshi inson" deya esla degan gapi Devid uchun tushunilishi qiyin edi. Stirforzning muloqot uslubi tamoyilining ushbu qoidasini buzishidan maqsad tinglovchi bilan ahil munosabat o'rnatish bo'lib, kelajakda ham Devid bilan yaxshi munosabatlarni saqlab qolishni niyat qilgan va ushbu shart forma orqali "Iltimos, meni eslab tur!" mazmunidagi implikaturani hosil qilmoqda. Yuzaga kelgan implikaturaning pragmatik funksiyasi "iltimos" nutq aktini bajarish bilan belgilanadi.

Kontekst: Hoji buvining chorbog'ida sumalak bo'lgan kun hamma xotinlar to'planib Zebi xolaning mungli kuyini eshitar edi. Zebi xola asar qahramonining otasining dutorini chalib dutorni qaytarib berdi. Bolakay dutorni uyga olib kelayotib, uni sindirib qo'yadi va do'sti Valining uyiga kirib dutorni sozlaydi. Bir kuni asar qahramonining otasi buni bilib qoladi va "dutorga kim tegdi" deb koyiydi.

Asar qahramonining onasi: *Zebi opa chaluvdi. Sumalakka chiqqanimizda bir chalib beray devdi.*

Asar qahramonining otasi: *Zebi chalsa mayli* [Hoshimov, 2012; 182].

Implikatura: *Zebiga ruxsat. Zebi dutor chalgan bo'lsa qarshi emasman.*

Maqsad: *Boshqa inson (Zebi xola)ning hurmati, o'rni, qadrini saqlash.*

Pragmatik funksiya: *ruxsat berish (nutq akti).*

Ushbu misoldan ma'lumki, so'zlovchi "*Zebi chalsa mayli*" shart formasidan foydalanish orqali muloqot uslubi tamoyilining "notanish, mavhum, noma'lum, tushunilishi qiyin bo'lgan iboralarni qo'llashdan qoch" qoidasini buzadi. Buning sababi shuki, so'zlovchi "Dutorni kim sindirdi? Dutorga kim tegdi?" deb dag'dag'a qilayotgan bir paytda xotinidan "Zebi opa chaluvdi" degan javobni eshitib jim bo'lib qolishi va "*Zebi chalsa mayli*" deya ohista gapirishi xotini va bolalari uchun noma'lum va tushunilishi qiyin bo'lgan vaziyat edi. Aslida, muloqot sharoiti so'zlovchidan "*nega chaladi?, nega ruxsatsiz berdingiz?, nega dutorni sindiradi?*" kabi javoblarni talab qilardi. So'zlovchi mazkur diskursda muloqot uslubi tamoyilining ushbu qoidasini boshqa inson (Zebi xola)ning hurmati, o'rni, qadrini saqlash maqsadida buzar ekan, bunda so'zlovchining pragmatik maqsadi Zebi xolaning obro'sini saqlab qolish edi. Ya'ni Zebi xola bunday mehr, mulozamat yoki e'tiborga loyiq. U ham eridan, ham o'g'lidan bir oyda ajralgan ayol edi. Shuningdek, ushbu shart formasi orqali muloqot uslubi tamoyilining buzilishi natijasida "*Zebiga ruxsat. Zebi dutor chalgan bo'lsa qarshi emasman*" mazmunidagi implikatura hosil bo'lmoqda va "*ruxsat berish*" pragmatik funksiyasi amalga oshirilmoqda.

Kontekst: Voqea asar qahramonining uyida bo'lyapti. Qo'shni qiz Guli va asar

qahramoni eskilik sarqiti sifatida qaralayotgan sovchilik haqida bahs yuritar ekan, Guli bunday sarqitga qarshi kurashmayotgani uchun qo'shnisini va hadeb uyiga kelayotgani uchun sovchilarni yomonlab gapiradi. Gulining gaplaridan asar qahramoni uning "yigiti" borligini payqagan edi.

Asar qahramoni: *Sovchi degani keladi. So'raydi, surishtiradi...*

Guli: *So'ramasayam hammasini biladi.*

Asar qahramoni: *O'zingiz xohlagan yigitning onasiyam keladi-da bir kun.*

Guli: *U "kelib-kelib senga maslahat solamanmi", degandek hafsalasi pir bo'lib chiqib ketdi* [Hoshimov, 2012; 49].

Implikatura: *Mening o'z "yigitim" yoki "yaxshi ko'rganim" bor.*

Maqsad: *Muhokamani to'xtatish, undan o'zini olib qochish.*

Pragmatik funktsiya: *ishonch bildirish (nutq akti).*

Misolda "*So'ramasayam hammasini biladi*" shart formasi orqali muloqot uslubi tamoyilining "notanish, mavhum, noma'lum, tushunilishi qiyin bo'lgan iboralarni qo'llashdan qoch" qoidasi buzilganligini kuzatish mumkin. Ya'ni Guli suhbatdoshining "*Sovchi degani keladi. So'raydi, surishtiradi...*" degan gapiga "*So'ramasayam hammasini biladi*" deb javob berar ekan, ushbu tamoyilni buzadi. Bunda Guli "hammasi" deb nimani nazarda tutyapti? "hammasi" nima? kabi savollar suhbatdoshi uchun noma'lum, mavhum ibora edi. Mazkur tamoyilning ushbu qoidasini buzishdan maqsad muhokamani to'xtatish, undan o'zini olib qochishdan iboratdir. So'zlovchi ushbu shart formasi orqali muloqot uslubi tamoyilining mazkur qoidasini buzar ekan, "*Mening o'z yigitim yoki yaxshi ko'rganim bor*" mazmunidagi implikaturani hosil qiladi va "*ishonch bildirish*" assertiv aktini bajaradi.

Ingliz va o'zbek tillarida muloqot uslubi tamoyilining "dudmallik, ko'p ma'nolilikdan uzoq tur" qoidasining buzilishi natijasida implikatura hosil bo'lishiga oid misollarni tahlil qilamiz.

Kontekst: Bir kuni Edvard sog'lig'idan shikoyat qilib doktorining oldiga kelar ekan, shifokoriga oyog'idan boshqa hamma joyida og'riq borligini aytadi. Bunga ishonmagan doktor unga retsept yozib beradi, bemor uni dorixona xodimiga olib borib unga ko'rsatmani o'qittirsa, dori sotuvchi unga yordam berolmasligini aytadi (chunki retseptda bitta bifshteyk yeyish, har olti soatda bitta achchiq pivo ichish, har tongda o'n mil piyoda yurish, har tunda soat o'n birda uyquga ketish va boshini u tushunmaydigan narsalar bilan band qilmaslik haqida yozilgan edi).

Dori sotuvchi: *I am a chemist. If I was a store and family hotel combined, I might be able to help you. But I'm only a chemist* [Jerome, 2005; 5].

Implikatura: *Men do'kon yoki mehmonxona yuritmayman.*

Maqsad: *Kinoyali va istehzoli gapirish.*

Pragmatik funktsiya: *rad etish (nutq akti).*

Misoldan ko'rinib turganidek, "*If I was a store and family hotel combined, I might be able to help you*" shart formasi orqali muloqot uslubi tamoyilining "dudmallik, ko'p ma'nolilikdan uzoq tur" qoidasi buzilgan. Ya'ni dori sotuvchi doktori yozib bergan reseptdagi dorilarni so'rayotgan Edvardga "*If I was a store and family hotel combined, I might be able to help you*" deb javob berar ekan, Edvard sotuvchining

intensiyasini tushunishda ikki ma'nolilikka duch keladi: *u dori sotuvchisi, menga yordam bera oladi, u mehmonxona yoki do'konda ishlaydi, menga yordam bera olmaydi*. Bunda dori sotuvchisining pragmatik intensiyasi kinoyali va istehzoli gapirish orqali tinglovchini *tanqid qilishdan* iboratdir. Bunday qoida buzilishi natijasida "*Men do'kon yoki mehmonxona yuritmayman*" mazmunidagi implikatura hosil qilinadi va "*rad etish*" nutq akti pragmatik funksiyasi bajariladi.

Kontekt: Devid Kopperfild Londonga maktabga o'qishga jo'natiladi. U Londonda mehmonxonaga joylashadi. Mehmonxona oshxonasida o'tirgan Devid Kopperfild va ofitsiant o'zaro suhbatlashar ekan, Devid Kopperfild unga qancha pul to'lash kerakligini so'raganida, ofitsiant unga o'z baxtsizliklaridan nolib, xizmat haqi uch pens, biroq u olti pens olishga majburligini aytadi.

Devid Kopperfild: *What should you – what should I – how much ought I to – what would it be right to pay the waiter, if you please.*

Ofitsiant: *If I hadn't a family, and that family hadn't the cowpock. I wouldn't take a sixpence. If I didn't support an aged parent, and a lovely sister. I wouldn't take a farthing. If I had a good place, and was treated well here, I should beg acceptance of a trifle, instead of taking of it. But I live on broken wittles and I sleep on the coals* [Dickens, 1949; 72].

Implikatura: *Mening ahvolim nochor: oilam kasal va yashashga joyim yo'q.*

Maqsad: *Emotsional ta'sir ko'rsatish.*

Pragmatik funksiya: *xasrat, nola qilish (nutq akti).*

Misolda so'zlovchi "*If I hadn't a family, and that family hadn't the cowpock. I wouldn't take a sixpence. If I didn't support an aged parent, and a lovely sister. I wouldn't take a farthing. If I had a good place, and was treated well here, I should beg acceptance of a trifle, instead of taking of it. But I live on broken wittles and I sleep on the coals*" shart formasidan foydalanar ekan, muloqot uslubi tamoyilining "*dudmallik, ko'p ma'nolilikdan uzoq tur*" qoidasini buzadi. Ya'ni ofitsiant suhbatdoshining "*what would it be right to pay the waiter, if you please*" degan savoliga aniq va tushunarli javob bermasdan, noaniq va mujmal gapiradi. Natijada Devid ofitsiantning intensiyasini tushunishda ko'p ma'nolilikka duch keladi: u nimani xohlayapti, necha pul berishimni xohlayapti, nega oilaviy sharoiti haqida gapiryapti va h.k. Aslida, ofitsiant ushbu shart formasidan foydalanish orqali o'z pragmatik intensiyasi tinglovchiga emotsional ta'sir ko'rsatish (ya'ni aslida xizmat haqi uch pens, lekin u mijozidan ko'proq olishni xohlaydi)ni amalga oshirishni niyat qilgan ekan, "*Mening ahvolim nochor: oilam kasal va yashashga joyim yo'q*" mazmunidagi implikaturani hosil qiladi va ushbu implikaturaning pragmatik funksiyasi "*nola, hasrat qilish*" aktini bajarish bilan belgilanadi.

Kontekt: Asar qahramoni jurnalning yangi sonini varaqlab o'tirar, qassob qo'shning qizi Guli *Ensiklopediya* so'rab kirib kelar va qoshini chimirib asar qahramoniga savol berar edi.

Guli: *Siz hayotiy problemalarga ham aralashasizmi yo nuqul kitob yoza-verasizmi?*

Asar qahramoni: *Nima bo'ldi?*

Guli: *Mana, sizlar eskilik sarqitini yo 'qotish kerak, u-bu deb yozasiz, to 'g'rimi?*

Asar qahramoni: *To 'g'ri.*

Guli: *Unaqa bo 'lsa nimaga ko 'zingizning oldida bo 'p turgan sarqitga qarshi kurashmaysiz?*

Asar qahramoni: *Kechirasiz. Nima bo 'ldi o 'zi?*

Guli: *Sovchi degan gap qayoqdan chiqqan? Hali unisi keladi qiyshayib, hali bunisi keladi, tugunini osiltirib!* [Hoshimov, 2012; 48].

Implikatura: *Siz eskilik sarqitiga (jumladan, sovchilikka qarshi) qarshi kurashishingiz kerak.*

Maqsad: *O 'z manfaati, qiziqishini muhokama qilish.*

Pragmatik funksiya: *maslahat (nutq akti).*

Gulining *“Unaqa bo 'lsa nimaga ko 'zingizning oldida bo 'p turgan sarqitga qarshi kurashmaysiz?”* savoli muloqot uslubi tamoyilining *“dudmallik, ko 'p ma 'nolilikdan uzoq tur”* qoidasini buzganligini ushbu misoldan bilib olish mumkin, chunki u ushbu shart formasidan foydalanish orqali tinglovchiga o 'z savolini mujmal ifoda etmoqda. Tinglovchi Gulining nimani nazarda tutayotganligini aniq anglayolmadi. Ya 'ni so 'zlovchining savoli tinglovchi uchun mujmal edi: *qanaqa sarqit?, sarqitlar ko 'p bo 'lsa, qaysi birini nazarda tutyapti?*. Shu kabi dudmallik va ko 'p ma 'nolilik ushbu tamoyilning buzilishiga olib keldi. So 'zlovchi ushbu shart formasi orqali savol berar ekan, *o 'z manfaati, qiziqishini muhokama qilish* kabi pragmatik intensiyani amalga oshirishni niyat qiladi. Ya 'ni uyiga kelayotgan sovchilarning keti uzilmaganidan va uning o 'zining yaxshi ko 'rgani borligidan u sovchilikni eskilik sarqiti sifatida tilga oladi va unga qarshi kurashish kerakligini suhbatdoshiga ta 'kidlaydi. Guli o 'z nutqida muloqot uslubi tamoyilining mazkur qoidasini buzar ekan, *“siz eskilik sarqitiga (jumladan, sovchilikka qarshi) qarshi kurashishingiz kerak”* mazmunidagi implikaturani hosil qiladi va *“maslahat”* nutq aktidan iborat pragmatik funksiyani amalga oshiradi.

Kontekst: Asar qahramoninig onasi va qishloq xotinlari Huri satang sotib kelgan matolarni ko 'rar ekan, matolarning narxi qimmatligidan xotinlar birma-bir ortga tisariladi. Yosh kelinchak Guliga mato yoqib qolib, uni sakson so 'mga so 'raydi, ammo Huri satang bu narxni mensimay, Guliga qarab istehzoli gapiradi.

Guli: *Sakson so 'mga bo 'ladimi?*

Huri satang: *Sakson so 'mga marojniy ob yeng. Marojniy osayiz, eriyiz bilan maza qilib yeysiz* [Hoshimov, 2012; 236].

Implikatura: *Sakson so 'mga ko 'ylak yo 'q. Sakson so 'mga bermayman. Maqsad:* *O 'z hurmati, obro 'si, qadri va maqomini saqlash.*

Pragmatik funksiya: *rozi bo 'lmoq (nutq akti).*

Misoldan ma 'lumki, Huri satangning javobi *“Marojniy osayiz, eriyiz bilan maza qilib yeysiz”* muloqot uslubi tamoyilining *“dudmallikdan, ko 'p ma 'nolilikdan uzoq tur”* qoidasini buzadi. Buning sababi shundaki, Huri satang pragmatik intensiyasiga binoan mujmal javob beradi. Ya 'ni suhbatdoshi Guli uning javobidan xulosa chiqarishda noaniqlik va qiyinchilikka duch keladi. Biroq Gulining savoli Huri satangdan *“ha, beraman yoki roziman”* yoki *“yo 'q, bermayman yoki rozi emasman”*

kabi normal javob talab qilardi. Huri satangning muloqotning ushbu tamoyilini buzishidan pragmatik maqsad o'z hurmati, obro'si, qadri va maqomini saqlashdan iboratdir. Ya'ni Huri satang mag'rur, katta gap va brilliantga belanib yurgan ayol bo'lgani uchun sakson so'mni mensimadi. Ushbu tamoyilning buzilishi natijasida Huri satang shart formasidan foydalanish orqali **"Sakson so'mga ko'ylak yo'q. Sakson so'mga bermayman"** mazmunli konversatsion implikatura hosil qilar ekan, istehzoli gapirish orqali **"rozi bo'lmaslik"** pragmatik funksiyasini bajaradi.

Qiyoslanayotgan tillarda muloqot uslubi tamoyilning **"bayoning qisqa bo'lsin"** qoidasining buzilishi natijasida implikatura hosil bo'lishiga oid misollarni tahlilga tortamiz.

Kontekst: Meri Maloney eri Patrikning ishdan kelishini intiqlik bilan kutardi. Shu mahalda eri ishdan kelar ekan, Meri uni mehr ko'rsatib kutib oldi. Xotini eriga Payshanba bo'lganligi uchun (odatda, ular kechki ovqatni Payshanba kunlari restoranda qilishardi) ovqat qilmaganligini ma'lum qilar ekan, eriga bir oz pishloq taklif qiladi. Patrik "yo'q, xohlamayman" deb javob berar ekan, Meri uning charchaganligini sezib, unga muzlatgichda go'sht va boshqa narsalar borligini aytib, o'z stulida ovqatlanishni taklif etadi.

Meri: *Darling, Would you like me to get you some cheese? I haven't made any supper because it's Thursday.*

Patrik: *No.*

Meri: *If you're too tired to eat out, it's still not too late. There's plenty of meat and other things in the freezer, and you can have it here and not even move out of the chair* [Dahl, 1999; 70].

Implikatura: *Uyda ovqatlanishimiz mumkin. Buning uchun hamma sharoit bor.*

Maqsad: *Tinglovchini mamnun etish, ko'nglini olish.*

Pragmatik funksiya: *taklif qilish (nutq akti).*

Ushbu misoldan ma'lumki, Merining *"If you're too tired to eat out, it's still not too late. There's plenty of meat and other things in the freezer, and you can have it here and not even move out of the chair"* nutqi muloqot uslubi tamoyilining **"bayoning qisqa bo'lsin"** qoidasini buzadi, chunki u eriga *"Bir oz pishloq olib kelaymi? Xohlaysizmi?"* degan savol berganda, eri "yo'q" deb javob bergan edi. Erining "yo'q" degan javobidan so'ng ham Meri o'z taklifini davom ettirar ekan, **"tinglovchini mamnun etish, ko'nglini olish"** pragmatik intensiyasini amalga oshirish maqsadida *"Uyda ovqatlanishimiz mumkin"* mazmunidagi implikaturani hosil qiladi va **"taklif qilish"** pragmatik funksiyasini bajaradi.

Kontekst: Jeyn Eyr va janob Rochester o'rtasidagi suhbat. Janob Rochester Eyrdan unga turmushga chiqishini so'raydi. Shunda Eyr Rochesterdan yuzini tutib turishni va u yuzidagi ifodani o'qishni so'raydi. Bir ozdan so'ng Rochester Eyrga shunday sadoqatli va saxovatli qarashlaring bilan menga azob beryapsan der ekan, Eyr "agar sening gaplaring rost bo'lsa, taklifing samimiy bo'lsa, mening tuyg'ularim minnatdorchilik va bag'ishlovdan boshqa hech narsa emas, qanaqa qilib ular senga azob bersin" deb javob qaytaradi.

Janob Rochester: *Oh, Jane, you torture me! With that searching and yet faithful*

and generous look, you torture me!

Jeyn Eyr: *How can I do that? If you are true, and your offer real, my only feelings to you must be gratitude and devotion – they cannot torture* [Bronte, 1847; 486].

Implikatura: *Sening taklifing samimiy bo‘lsa, men senga turmushga chiqishga roziman. Men senikiman.*

Maqsad: *His-tuyg‘ularini ifodalash.*

Pragmatik funksiya: *rozilik berish (nutq akti).*

Misoldan aniq ko‘rinib turganidek, Eyning *“If you are true, and your offer real, my only feelings to you must be gratitude and devotion”* tarzidagi javobi muloqot uslubi tamoyilining *“bayoning qisqa bo‘lsin”* qoidasini buzgan, chunki u suhbatdoshining savoliga qisqacha javob bermasdan uzoq javob bermoqda. Ya‘ni suhbatdoshining savoli Eyrdan *“If you are true, and your offer real, my only feelings to you must be gratitude and devotion”* shart formasi orqali bergan javobini talab qilmaydi, balki *“men azob bermayapman”* yoki *“to‘g‘ri, azob beryapman”* degan javobni talab qiladi. Eyr o‘z his-tuyg‘ularini ifodalashdek pragmatik intensiyasini amalga oshirishni maqsad qilar ekan, *“Sening taklifing samimiy bo‘lsa, men senga turmushga chiqishga roziman. Men senikiman.”* mazmunidagi konversatsion implikaturani hosil qiladi va, shuningdek, *“rozilik berish”* pragmatik funksiyasini bajaradi.

Kontekst: Enaxon va uning kelinbibi shaharlik mehmonlar (Saltanatxon, Zebi va boshqalar)ni yaxshiroq mehmon qilishni maslahat qilar ekan, Mingboshining xotinlaridan ham najot kutadi. Ular mingboshining kichik xotini Sultonxonni chaqirsak, Zebining ovozigah mahliyo bo‘lib, uyiga mehmonga taklif qiladi degan umidda reja tuzadi. Bunga ishonchi komil bo‘lmagan Enaxonni kelinbibi ishontirishga harakat qiladi.

Enaxon: *Endi qanday bo‘lar ekan?*

Kelinbibi: *Biz bu kechaga mingboshi tog‘aning qizi bilan kichik xotinini chaqirtiraylik. Kecha chaqirtirganimizda kelmasalar, bugun chaqirtirsak, albatta, kelishadi. Siz nima deb o‘tiribsiz! Zebixonning ovozi, ashulalari undan kattaroqlarni ham sudrab keltiradi. Bu kecha bitta-yarimta ashula eshitib, suhbatni ko‘rishsa, ertaga, albatta, chaqirtirishadi* [Cho‘lpon, 2015; 37-38].

Implikatura: *Mingboshining xotini va qizi biznikiga kelishiga ishonchim komil.*

Maqsad: *Tinglovchini xursand qilish, mamnun etish.*

Pragmatik funksiya: *kuchli ishonch bildirish (nutq akti).*

Misolda *“Kecha chaqirtirganimizda kelmasalar, bugun chaqirtirsak, albatta, kelishadi”* va *“Bu kecha bitta-yarimta ashula eshitib, suhbatni ko‘rishsa, ertaga, albatta, chaqirtirishadi”* shart formalari muloqot uslubi tamoyilining *“bayoning qisqa bo‘lsin”* qoidasini buzganligini kuzatishimiz mumkin. Buning boisi shuki, Kelinbibi Enaxonning *“Endi qanday bo‘lar ekan?”* degan savoliga qisqa va lo‘nda javob bermasdan, shart formalaridan foydalanib uzun jumlar bilan javob bermoqda va muloqotning *“bayoning qisqa bo‘lsin”* qoidasini buzmoqda. Kelinbibining shunday uzun javob berishdan ko‘zlagan pragmatik intensiyasi *“tinglovchini xursand qilish, mamnun etish”* kabi maqsadni amalga oshirib, Enaxonga umid baxshida etish

va unga yordam berish uchun **“Mingboshining xotini va qizi biznikiga kelishiga ishonchim komil”** mazmunidagi implikaturani hosil qilishdan iborat edi. Hosil bo‘lgan implikaturaning pragmatik funksiyasi **“kuchli ishonch bildirish”** assertiv aktini amalga oshirishdir.

Kontekst: O‘lmasjonning onasi o‘g‘lining aravakashligidan darbadar bo‘lib kecha-kunduzni uyida o‘tkaza olmasligiga achinar edi. Bir kun xasratlarini eriga gapirib berar ekan, eri oson kasbning o‘zi bormi, hamma kasb o‘ziga yarasha qiyin deb nasihat qilardi.

O‘lmasjonning onasi: *Hunar bo‘lmay o‘lsin! Bolam bechoraning yuzini kun yorug‘ida ko‘rolmayman!*

O‘lmasjonning otasi: *Muncha jovraysan, hay. Shukur qilsang-chi! Qimorboz bo‘lib, bor-yo‘g‘ingni “gardkam”ga bersa, nima qilarding? Ahmadalining katta o‘g‘liday butun ro‘zg‘orini ichkilikka sovursa, nima qilarding? Ishga kirganiga to‘rt oy endi bo‘ldi. Haligacha oz topgan bo‘lsa, bundan nari ko‘p topar* [Cho‘lpon, 2015; 90-91].

Implikatura: *Shukur qil! O‘g‘ling qimorboz emas. Ichmaydi. Oz bo‘lsa ham pul topyapti.*

Maqsad: *Shikoyatdan o‘zini olib qochish.*

Pragmatik funksiya: *nasihat (nutq akti).*

Ushbu shart konstruksiyasi **“Qimorboz bo‘lib, bor-yo‘g‘ingni “gardkam”ga bersa, nima qilarding? Ahmadalining katta o‘g‘liday butun ro‘zg‘orini ichkilikka sovursa, nima qilarding? Ishga kirganiga to‘rt oy endi bo‘ldi. Haligacha oz topgan bo‘lsa, bundan nari ko‘p topar”** muloqot uslubi tamoyilining **“bayoning qisqa bo‘lsin”** qoidasini buzganligi mazkur misolda yaqqol o‘z aksini topgan. Bunda er xotinining **“Hunar bo‘lmay o‘lsin! Bolam bechoraning yuzini kun yorug‘ida ko‘rolmayman!”** degan nolasiga o‘z nutqida shart formalari orqali ifodalangan uzun javobdan foydalanishni afzal ko‘radi. Aslida, kampirning xasratiga bunchalik uzun javob shart emas bo‘lsa-da, chol ushbu shart konstruksiyalari orqali o‘z pragmatik intensiyasi bo‘lgan **“shikoyatdan o‘zini olib qochish”**ni amalga oshirish va kampirni tinchlantirish va shikoyatni to‘xtatish uchun **“Shukur qil! O‘g‘ling qimorboz emas. Ichmaydi. Oz bo‘lsa ham pul topayotgan bo‘lsa”** mazmunidagi implikaturani hosil qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi va ushbu implikaturaning pragmatik funksiyasi **“nasihat qilish”** nutq aktini amalga oshirishdan iborat.

Qiyoslanayotgan tillarda muloqot uslubi tamoyilining **“nutqing mantiqiy uzviylik, tartibda bo‘lishi lozim”** qoidasining buzilishi natijasida implikatura hosil bo‘lishiga oid misollarni tahlilga tortamiz.

Kontekst: Eliza va Xiggins o‘rtasidagi suhbat. Eliza Xigginsning uyiga unga aslzoda xonimlardek o‘zini tutishni va gapirishni o‘rgatishini so‘rab keladi. Shunda Xiggins Elizaga bir necha savollar beradi. Xiggins Elizaga: “Bu yerga taksida keldim deb aytingmi?” – deb savol berar ekan, Eliza: “Taksida kelsam nima bo‘libdi?” – deb koyish ohangida javob beradi.

Xiggins: *Listen, Eliza. I think you said you came in a taxi.*

Eliza: *Well, what if I did? I’ve as good a right to take a taxi as anyone else*

[Shaw, 2004; 27].

Implikatura: *Boshqa aslzoda xonimlardek men ham taksida yurishga loyiqman. Men ulardan kam emasman.*

Maqsad: *O‘z hurmati, qadri, o‘rni, obro‘ va maqomini saqlash.*

Pragmatik funksiya: *koyish, tanbeh berish (nutq akti).*

Elizaning “*what if I did?*” savol shaklidagi javobi muloqot uslubi tamoyilining “*nutqing mantiqiy uzviylik, tartibda bo‘lishi lozim*” qoidasini buzgan, chunki ushbu javob Xigginsning “*Listen, Eliza. I think you said you came in a taxi*” savoliga nisbatan mantiqiy uzviylik va tartibda emas. Vaholanki, adresantning savoli “*Ha, taksida keldim*” yoki “*Yo‘q, taksida kelmadim*” kabi maqbul javoblarni taqozo etadi. Adresat shart formasidan foydalanar ekan, “*o‘z hurmati, qadri, o‘rni, obro‘ va maqomini saqlash*” maqsadida muloqot uslubi tamoyilining “*nutqing mantiqiy uzviylikda, tartibli bo‘lishi lozim*” qoidasini buzar ekan, “*Boshqa aslzoda xonimlardek men ham taksida yurishga loyiqman. Men ulardan kam emasman*” mazmunidagi implikatura hosil qilish va “*koyish, tanbeh berish*” pragmatik funksiyasini bajarishni niyat qilgan.

Kontekst: Asar qahramoni motori o‘chib qolgan mashinasining kapotini darvoza oldida ochib o‘tirar ekan, mashinaga nima qilganini bilmay boshi qotadi. Shu payt bolalikdan birga o‘sgan do‘sti Vali yuk mashinasidan tushib kelarkan, “*Nima bo‘ldi?*” deb so‘raydi. Asar qahramoni quvonib ketganidan uni yaxshi kutib oladi.

Asar qahramoni: *Bormisan! Kasal tuzalaman desa, tabib o‘z oyog‘i bilan keladi-da.*

Vali: *Nima bo‘ldi?* [Hoshimov, 2012; 168-169].

Implikatura: *Mashinam buzilib qoldi. Ko‘rib ber, iltimos.*

Maqsad: *His-tuyg‘ulari (quvonch)ni ifodalash.*

Pragmatik funksiya: *iltimos (nutq akti).*

Ushbu shart konstruksiyasi “*Kasal tuzalaman desa, tabib o‘z oyog‘i bilan keladi-da*” muloqot uslubi tamoyilining “*nutqing mantiqiy uzviylikda, tartibli bo‘lishi lozim*” qoidasini buzgan, chunki adresant o‘z nutqida shart formasini qo‘llar ekan, muloqotning tartiblilik tamoyilini buzadi, ya‘ni so‘zlovchi mashinasini tuzatolmay turganidan shofyor o‘rtog‘i Valini ko‘rib, quvonganidan darhol salomlashmasdan maqsadga o‘tadi. Uning bu nutqi esa muvaffaqiyatli muloqot tamoyillariga ko‘ra, “muloqotning boshi salomlashish bilan boshlanishi lozim” degan qoidani buzib, mantiqiy uzviylik va tartibda ifodalanmagan. Zero, adresant suhbatni “Assalomu-alaykum, o‘rtoq!” yoki “Salom, do‘stim!” kabi kirish iboralar bilan boshlashi joiz edi. Ushbu qoidani buzishdan maqsad “*His-tuyg‘ulari (quvonch)ni ifodalash*” bo‘lib, “*Mashinam buzilib qoldi. Ko‘rib ber, iltimos*” mazmunidagi implikatura hosil qilish va “*iltimos qilish*” pragmatik funksiyasini bajarishdan iboratdir.

Kontekst: Asar qahramonining o‘rtog‘i Xo‘janing ota-onasi (Risolat opa va Egamberdi aka) eri urushdaligida xotinining xiyonati tufayli ajrashgan. Bir kuni asar qahramonining onasi Xo‘ja bilan onasini uchrashtirayotganda Egamberdi aka kelib qoladi va “Nega kelding” deb g‘azablanib baqiradi.

Egamberdi aka: *Uyalmaysizmi, opa! Q-qo‘shmachilik q-q-qilgani uyalmaysizmi!*

Asar qahramonining onasi: *Bandasidan uyalmasangiz, Xudodan qo'rqing, ukam. Ona-bola diydor ko'rishsa, qo'shmachilik bo'ladimi? Etni tirnoqdan ajratib bo'larkanmi?* [Hoshimov, 2012; 191].

Implikatura: *Xudodan qo'rqish kerak. Ona va bolani bir-biridan ajratish yaxshi ish emas.*

Maqsad: *Konfliktni kamaytirish.*

Pragmatik funksiya: *nasihat (nutq akti).*

Misoldan ma'lumki, adresat o'z nutqida **“Bandasidan uyalmasangiz, Xudodan qo'rqing, ukam. Ona-bola diydor ko'rishsa, qo'shmachilik bo'ladimi?”** tarzidagi shart formasini ifodalar ekan, muloqot uslubi tamoyilining **“nutqing mantiqiy uzviylikda, tartibli bo'lishi lozim”** qoidasini maqsadli buzadi. Buning sababi shuki, adresantning **“Uyalmay sizmi, opa! Q-qo'shmachilik q-q-qilgani uyalmay sizmi!”** savoliga savol shaklida shart formasidan foydalanish orqali javob berar ekan, o'z nutqini mantiqiy uzviylikka amal qilmagan holda va tartibsizlikda ifoda etadi. Biroq adresat ushbu qoidani buzishdan pragmatik maqsadni ko'zlar ekan, suhbat jarayonidagi konfliktni kamaytirishni niyat qilgan. Natijada adresat **“Xudodan qo'rqish kerak. Ona va bolani bir-biridan ajratish yaxshi ish emas”** mazmunidagi konversatsion implikaturani hosil qiladi va **“nasihat qilish”** pragmatik funksiyasini bajaradi. Quyidagi jadvalda qiyoslanayotgan tillarda shart gaplarning implikatura hosil qilishdagi o'xshash va farqli xususiyatlari tasvirlangan:

1-jadval.

Ingliz va o'zbek tillarida shart gaplarning muloqot uslubi tamoyili buzilishi natijasida hosil qilgan implikatura va uning pragmatik funksiyasining kontrastiv tahlili

Ingliz tili				O‘zbek tili			
Notanish, tushunilishi qiyin bo‘lgan iboralarni qo‘llashdan qoch							
Dialoglar	Maqsad	Implik-ra	Prag-tik funksiya	Dialoglar	Maqsad	Implik-ra	Prag-tik funksiya
№1	Tinglovchi bilan ahil munosabat o‘rnatish	Iltimos, meni eslab tur!	Iltimos nutq akti	№1	O‘zganing o‘rni, hurmati, maqomini saqlash	Zebiga ruxsat. Zebi dutor chalgan bo‘lsa qarshi emasman.	Ruxsat berish nutq akti
№2	—	—		№2	Muhokamani to‘xtatish, undan o‘zini olib qochish	Mening o‘z yigitim bor. Mening yaxshi ko‘rganim bor.	Ishonch bildirish nutq akti
Dudmallikdan uzoq tur							
№1	Tanqid qilish	Men savdo do‘koni yoki mehmonxona yuritmayman.	Rad etish nutq akti	№1	O‘z manfaati, qiziqishini muhokama qilish	Siz eskilik sarqitiga qarshi kurashishingiz kerak.	Maslahat qilish nutq akti

№2	Emot-sional ta'sir o'tkazish	Mening ahvoli-m nochor: oilam kasal va yashashga joyim yo'q.	Xasrat, nola chekish	№2	O'z qadri, obro', maqomi, o'rnini saqlash	Sakson so'mga ko'ylak bormi? Sakson so'mga bermayman.	Rozi bo'lmaslik nutq akti
Bayoning qisqa bo'lsin							
№1	Tinglovchi-ni mamnun etish	Muzlatgichda yeyish uchun go'sht va boshqa narsalar bor.	Taklif nutq akti	№1	Tinglovchi-ni mamnun etish	Mingboshi-ning xotini va qizi biznikiga kelishiga ishonchim komil.	Kuchli ishonch bildirish
№2	His-tuyg'ularini ifodalash	Sening taklifing samimiy bo'lsa, men senga turmushga chiqishga roziman.	Rozilik berish nutq akti	№2	Shikoyatdan o'zini olib qochish	Shukur qil! O'g'ling qimorboz emas. Ichmaydi. Oz bo'lsa ham pul topayotgan bo'lsa.	Nasihat nutq akti
Nutqning mantiqiy uzviylikda, tartibda bo'lishi lozim							
№1	O'z qadri, obro', maqomi, o'rnini saqlash	Boshqa aslzoda xonimlardek men ham taksida yurishga loyiqman.	Tanbeh, koyish nutq akti	№1	His-tuyg'ularini ifodalash	Mashinam buzilib qoldi. Ko'rib ber, iltimos.	Iltimos nutq akti
№2	—	—	—	№2	Konfliktni kamaytirish	Xudodan qo'rqish kerak. Ona va bolani bir-biridan ajratish yaxshi emas.	Nasihat nutq akti

Jadvalning umumiy mazmunidan ma'lumki, ingliz va o'zbek tillarida shart munosabat ifodalovchi til birliklari ma'lum muloqot jarayonida muloqot uslubi tamoyilini buzish orqali muayyan implikatura hosil qilish potensialiga ega. Hosil bo'lgan implikatura ma'lum kommunikativ vaziyatda muayyan nutq akti vazifasini amalga oshiradi.

XULOSA

Ta'kidlash mumkinki, ingliz tilida muloqot ishtirokchilari shart formalaridan foydalangan holda ma'lum implikatura hosil qilar ekan, ular muloqot uslubi tamoyilini turli maqsadlarda buzadi, jumladan: *tinglovchi bilan ahil munosabat o'rnatish, tanqid qilish, emosional ta'sir ko'rsatish*. O'zbek tilida tahlilga tortilgan misollardan ma'lum bo'lishicha, kommunikantlar shart munosabati formalaridan foydalanish orqali implikatura hosil qilish uchun muloqot uslubi maksimasini quyidagi maqsadlarda buzadi: *muhokamani to'xtatish, undan o'zini olib qochish, o'z manfaati, qiziqishini muhokama qilish, shikoyatdan o'zini olib qochish, konfliktni kamaytirish*. Bu esa qiyoslanayotgan tillarning allomorfik xususiyatidir.

Ingliz va o'zbek tillarida muloqot ishtirokchilari shart konstruksiyalaridan

konversatsion implikatura hosil qilish uchun foydalanar ekan, muloqot uslubi tamoyilini quyidagi maqsadlarda buzishi izomorfik xususiyat sifatida e'tirof etilishi mumkin: *o'z (va o'zganing) qadri, obro', maqomi, o'rnini saqlash, tinglovchini mamnun etish, his-tuyg'ularini ifodalash.*

Ingliz va o'zbek tillarida nutq ishtirokchilari shart konstruksiyalaridan foydalanish orqali konversatsion implikatura hosil qiladi va mazkur implikatura ma'lum kommunikativ kontekstda ma'lum nutq aktini voqealantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Athanasiadou, A., & Dirven, R. (1996). Pragmatic conditionals. *Selected Papers on Theoretical and Applied Linguistics*, 9, 99–108. <https://doi.org/10.26262/istal.v9i0.5744>.
2. Barbara, D., & Ewa, M. (1984). Semanto-pragmatic classification of conditionals. *Studia Anglica Posnaniensia*, 17, 121–133.
3. Bonnefon, J.-F., & Politzer, G. (2011). Pragmatics, mental models and one paradox of the material conditional. *Mind and Language*, 26(2), 141–155.
4. Bronte, Ch. (1847). *Jane Eyre*. UK: Smith, Elder and Co.
5. Dahl, R. (1999). *Taste and other tales*. Harlow: Pearson Education Limited.
6. Dickens, Ch. (1949). *David Copperfield*. Moscow: Foreign Languages Publishing House.
7. Elder, C-H., & Jaszczolt, K.M. (2016). Towards a pragmatic category of conditionals. *Journal of Pragmatics*, 98, 36–53. <https://doi.org/10.1016/j.pragma.2016.04.013>.
8. Harada, Y., & Honda, K. (2000). Pragmatic inference with conditionals and concessives in Japanese. *Proceedings of the 15th Pacific Asia Conference on Language, Information and Computation*, 223–234.
9. Hasselgård, H. (2016). Conditional clauses in novice academic English: A comparison of Norwegian learners and native speakers. *Nordic Journal of English Studies*, 15(2), 95–112.
10. Haugh, M. (2002). The intuitive basis of implicature: relevance theoretic implicitness versus Gricean implying. *Pragmatics*, 12(2), 117–134. <https://doi.org/10.1075/prag.12.2.01hau>.
11. Hilton, D.J., Bonnefon, J.-F., & Kimmelman, M. (2001). Pragmatics at work: Formulation and interpretation of conditional instructions. *Proceedings of the Annual Meeting of the Cognitive Science Society*, 23(23), 1–6.
12. Hoshimov, O'. (2012). *Dunyoning ishlari*. Toshkent: "Meriyus" nashriyoti.
13. Hsu, H.-M., Wang, Y.-F., & Hu, K.-M. (2015). Direct and indirect conditionals: a corpus-based study of Chinese yaoshi and yaobushi in spoken and written discourse. *Taiwan Journal of Linguistics*, 13(2), 31–77. [https://doi.org/10.6519/TJL.2015.13\(2\).2](https://doi.org/10.6519/TJL.2015.13(2).2).
14. Igwedibia, A. (2017). Grice's conversational implicature: A pragmatics analysis of selected poems of Audre Lorde. *International Journal of Applied Linguistics & English Literature*, 7(1), 120–129. <https://doi.org/10.7575/aiac.ijalel.v.7n.1p.120>.
15. Ippolito, M.M. (2002). The time of possibilities: Truth and felicity of subjunctive conditionals. *PhD thes.* Massachusetts: Massachusetts Institute of Technology.
16. Jerome, K.J. (2005). *Three men in a boat*. Krakow: Mediasat Poland Bis.
17. Jimaima, H. (2014). The syntax, semantics and pragmatics of conditional clauses in Tonga and English: a comparative analysis. *MA thes.* Zambia: University of Zambia.
18. Johnson-Laird, P.N., & Byrne, R.M. (2002). Conditionals: A theory of meaning, pragmatics, and inference. *Psychological Review*, 109(4), 646–678. <https://doi.org/10.1037/0033-295x.109.4.646>.
19. Carston, R. (2004). Truth-conditional content and conversational implicature. In C. Bianchi (Ed.), *The Semantics/Pragmatics Distinction* (pp. 65–100). London: CSLI Publications.
20. Ko, W. (2013). A study on the acquisition of if-conditionals by Korean- & Spanish-speaking learners of English. *English Teaching*, 68(1), 141–178.
21. Minniqulov, I.U. (2018). Jahon tilshunosligida shart munosabatlarining o'rganilish tarixi. *Ilm Sarchashmalari*, 11, 82–85.

22. Minnikulov, I.U. (2019a). Generation of a conversational implicature by conditional constructions in English and Uzbek (by violating the maxim of quantity). *American Journal of Research*, 9(10), 18–31.
23. Minnikulov, I.U. (2019b). Tilshunoslikda shart munosabatlari ifodalanishini o'rganishga pragmatik yondashuv. *"Xorijiy Filologiya: til, adabiyot, ta'lim" ilmiy-uslubiy jurnali*, 3, 85–89.
24. Minnikulov, I.U. (2021). Linguistic investigation of conditional relationships in the world linguistics. *Philology Matters*, 1(2), 52–77.
25. Oaksford, M., & Chater, N. (2010). Causation and conditionals in the cognitive science of human reasoning. *The Open Psychology Journal*, 3, 105–118.
26. Portner, P. (2007). *Modality and mood*. Washington D.C.: Georgetown University Press.
27. Recanati, F. (2015). Attitude ascriptions, mental files, and truth-conditional pragmatics: Reply to Stojanovic and Villanueva-Fernandez. *Hal.science*. <https://hal.science/hal-01104727>.
28. Safarov, Sh. (2008). *Pragmalingvistika*. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti.
29. Sarah, M. (2010). On the pragmatics of counterfactuals. *Noûs*, 46(3), 561–586.
30. Schulz, K. (2014). Fake tense in conditional sentences: a modal approach. *Natural Language Semantics*, 22(117), 117–144. <https://doi.org/10.1007/s11050-013-9102-0>.
31. Spohn, W. (2013). A ranking-theoretic approach to conditionals. *Cognitive Science*, 37, 1074–1106. <https://doi.org/10.1111/cogs.12057>.
32. Valiña, M.D., Seoane, G., Ferraces, M.J., & Martín, M. (1997). Pragmatic factors in conditional reasoning with narrative texts. In M.G. Shafto, & P.Langley (Eds.), *Proceedings of the Nineteenth Annual Conference of the Cognitive Science Society*. New Jersey: LEA.
33. Xiaoqin, L. (2017). Overcommunication strategies of violating Grice's cooperative principle in ground service. *English Language Teaching*, 10(11), 162–172. <http://doi.org/10.5539/elt.v10n11p162>.
34. Shaw, G.B. (2004). *Pygmalion*. Hazleton: The Pennsylvania State University Press.
35. Chao, Sh.-J., & Cheng, P.W. (2000). The emergence of inferential rules. The use of pragmatic reasoning schemas by preschoolers. *Cognitive Development*, 15, 39–62.
36. Cho'lpon, A. (2015). *Kecha va kunduz*. Toshkent: "Yangi asr avlodi" nashriyoti.

REFERENCES

1. Athanasiadou, A., & Dirven, R. (1996). Pragmatic conditionals. *Selected Papers on Theoretical and Applied Linguistics*, 9, 99–108. <https://doi.org/10.26262/istal.v9i0.5744>.
2. Barbara, D., & Ewa, M. (1984). Semanto-pragmatic classification of conditionals. *English Studies Posnaniensia*, 17, 121–133.
3. Bonnefon, J.-F., & Politzer, G. (2011). Pragmatics, mental models and one paradox of the material conditional. *Mind and Language*, 26(2), 141–155.
4. Bronte, Ch. (1847). *Jane Eyre*. UK: Smith, Elder and Co.
5. Carston, R. (2004). Truth-conditional content and conversational implicature. In C.Bianchi (Ed.), *The Semantics/Pragmatics Distinction* (pp. 65–100). London: CSLI Publications.
6. Chao, Sh.-J., & Cheng, P.W. (2000). The emergence of inferential rules. The use of pragmatic reasoning schemas by preschoolers. *Cognitive Development*, 15, 39–62.
7. Cholpon, A. (2015). *Day and night*. Tashkent: New Age Generation Publishing House.
8. Dahl, R. (1999). *Taste and other tales*. Harlow: Pearson Education Limited.
9. Dickens, Ch. (1949). *David Copperfield*. Moscow: Foreign Languages Publishing House.
10. Elder, C-H., & Jaszczolt, K.M. (2016). Towards a pragmatic category of conditionals. *Journal of Pragmatics*, 98, 36–53. <https://doi.org/10.1016/j.pragma.2016.04.013>.
11. Harada, Y., & Honda, K. (2000). Pragmatic inference with conditionals and concessives in Japanese. *Proceedings of the 15th Pacific Asia Conference on Language, Information and Computation*, 223–234.

12. Hasselgård, H. (2016). Conditional clauses in novice academic English: A comparison of Norwegian learners and native speakers. *Nordic Journal of English Studies*, 15(2), 95–112.
13. Haugh, M. (2002). The intuitive basis of implicature: relevance theoretic implicitness versus Gricean implying. *Pragmatics*, 12(2), 117–134. <https://doi.org/10.1075/prag.12.2.01hau>.
14. Hilton, D.J., Bonnefon, J.-F., & Kimmelman, M. (2001). Pragmatics at work: Formulation and interpretation of conditional instructions. *Proceedings of the Annual Meeting of the Cognitive Science Society*, 23(23), 1–6.
15. Hashimov, O. (2012). *The affairs of the world*. Tashkent: Publishing House of 'Meriyus'.
16. Hsu, H.-M., Wang, Y.-F., & Hu, K.-M. (2015). Direct and indirect conditionals: a corpus-based study of Chinese yaoshi and yaobushi in spoken and written discourse. *Taiwan Journal of Linguistics*, 13(2), 31–77. [https://doi.org/10.6519/TJL.2015.13\(2\).2](https://doi.org/10.6519/TJL.2015.13(2).2).
17. Igwedibia, A. (2017). Grice's conversational implicature: A pragmatics analysis of selected poems of Audre Lorde. *International Journal of Applied Linguistics & English Literature*, 7(1), 120–129. <https://doi.org/10.7575/aiac.ijalel.v.7n.1p.120>.
18. Ippolito, M.M. (2002). The time of possibilities: Truth and felicity of subjunctive conditionals. *PhD thes.* Massachusetts: Massachusetts Institute of Technology.
19. Jerome, K.J. (2005). *Three men in a boat*. Krakow: Mediasat Poland Bis.
20. Jimaima, H. (2014). The syntax, semantics and pragmatics of conditional clauses in Tonga and English: a comparative analysis. *MA thes.* Zambia: University of Zambia.
21. Johnson-Laird, P.N., & Byrne, R.M. (2002). Conditionals: A theory of meaning, pragmatics, and inference. *Psychological Review*, 109(4), 646–678. <https://doi.org/10.1037/0033-295x.109.4.646>.
22. Ko, W. (2013). A study on the acquisition of if-conditionals by Korean- & Spanish-speaking learners of English. *English Teaching*, 68(1), 141–178.
23. Minnikulov, I.U. (2018). The history of the study of conditional relations in world linguistics. *Science Resources*, 11, 82–85.
24. Minnikulov, I.U. (2019a). Generation of a conversational implicature by conditional constructions in English and Uzbek (by violating the maxim of quantity). *American Journal of Research*, 9(10), 18–31.
25. Minnikulov, I.U. (2019b). A pragmatic approach to studying the expression of conditional relations in linguistics. *Scientific and Methodological Journal of Foreign Philology: Language, Literature, Education*, 3, 85–89.
26. Minnikulov, I.U. (2021). Linguistic investigation of conditional relationships in the world linguistics. *Philology Matters*, 1(2), 52–77.
27. Oaksford, M., & Chater, N. (2010). Causation and conditionals in the cognitive science of human reasoning. *The Open Psychology Journal*, 3, 105–118.
28. Portner, P. (2007). *Modality and mood*. Washington D.C.: Georgetown University Press.
29. Recanati, F. (2015). Attitude ascriptions, mental files, and truth-conditional pragmatics: Reply to Stojanovic and Villanueva-Fernandez. *Hal.science*. <https://hal.science/hal-01104727>.
30. Safarov, Sh. (2008). *Pragmalinguistics*. Tashkent: National Encyclopedia of Uzbekistan State Scientific Publishing House.
31. Sarah, M. (2010). On the pragmatics of counterfactuals. *Noûs*, 46(3), 561–586.
32. Schulz, K. (2014). Fake tense in conditional sentences: a modal approach. *Natural Language Semantics*, 22(117), 117–144. <https://doi.org/10.1007/s11050-013-9102-0>.
33. Shaw, G.B. (2004). *Pygmalion*. Hazleton: The Pennsylvania State University Press.
34. Spohn, W. (2013). A ranking-theoretic approach to conditionals. *Cognitive Science*, 37, 1074–1106. <https://doi.org/10.1111/cogs.12057>.
35. Valiña, M.D., Seoane, G., Ferraces, M.J., & Martín, M. (1997). Pragmatic factors in conditional reasoning with narrative texts. In M.G. Shafto, & P. Langley (Eds.), *Proceedings of the Nineteenth Annual Conference of the Cognitive Science Society*. New Jersey: LEA.
36. Xiaoqin, L. (2017). Overcommunication strategies of violating Grice's cooperative principle

in ground service. *English Language Teaching*, 10(11), 162–172. <http://doi.org/10.5539/elt.v10n11p162>.